

Huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish



15.10.2022

Huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish

Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida 1kurs talaba-yoshlari o'rtasida turli yot g'oyalardan himoyalashning samarali uslublari va uning zararli oqibatlarini keng yoritish, talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish hamda ma'nnaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida huquq-targ'ibot organlari bilan hamkorlikda fakultet dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, va fakultet tyutorlari tashabbusi bilan "Huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilik, zo'ravonlikka qarshi kurashish" mavzusida tadbir o'tkazildi.



Tadbirda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan soha xodimlari Universitet huquq targ'ibot maskani profilaktika katta inspektori Ubaydullaev Abzal Riqsiboevich, Toshkent shahar Yunusobod tumani IIB "Mirzo Ulug'bek" mahalla Yoshlar masalalari bo'yicha bo'lib boshlig'i profilaktika inspektori Amanova Baxtigul Rashidovnalar so'zga chiqib, bugungi kunga kelib xalqaro terrorizm, narkotraffik va odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarning inson xavfsizligiga xuruj qilayotgani bois, ulardan jabr chekayotganlar, afsuski, ko'pchilikni tashkil etayotganligi, hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatlarning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotganligini aytib o'tdi. Shuningdek, yoshlarni boshqa davlatlarda kechayotgan noxush voqealar hamda tartibsizliklardan voqif etish emas, balki o'z tinchligimizning qadriga yetish, uni har qanday tahdidlardan asrab-avaylash ekanligini ta'kidladi.



Shuningdek, bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz spirtli ichimliklarga ruju qo'yayotganligi va buning natijasida turli jinoyatlar sodir etayotganli to'g'risida ham talaba-yoshlari tushunchalar berib o'tishdi. Tadbir yakunida talabalarni qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan to'liq va aniq javoblar berildi. Shundan so'ng fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinnbosari H.Eshova barcha tadbir ishtirokchilariga o'z minnatdorchiliginibildirgan holda tadbirni yakunladi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti